



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	236
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
Jumanova Zilola Tuychiyevena	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
OROL BO'YI MINTAQASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	259
Umarova Xusnora Dilmurod qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	264
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
INNOVATSION KLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI.....	269
Quliyev Begimqul Melikovich	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	276
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
АГРОЭКОТУРИЗМ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ СЕЛЬСКИХ ТЕРРИТОРИЙ УЗБЕКИСТАНА.....	281
Хайдаров Ойбек Зоирович	
THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON SERVICE QUALITY AND CUSTOMER SATISFACTION IN THE HOUSEHOLD SERVICE SECTOR: EMPIRICAL EVIDENCE FROM SAMARKAND REGION	287
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Yuldosheva Zulfizar Sayfullayevna	
DEVELOPMENT OF INTERACTIVE MODELING METHODS FOR THE SYNTHESIS OF INTELLIGENT CONTROL SYSTEMS FOR TECHNICAL OBJECTS IN THE DIGITAL ECONOMY	293
Mamutova Aygul Kalmurzaevna	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH MASALALARI.....	298
Abdurazakova Nasiba Sultanovna	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TRANSFORMATSIYASI VA UNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	303
Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	
ZAMONAVIY AXBOROT TIZIMLARI ORQALI SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL	308
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
TA'LIM MIGRATSIIYASI VA INTEGRATSIYA KO'RSATKICHLARINI STATISTIK TAHLILI: YEVROPA ITTIFOQI (SIRIUS) TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	314
Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna	



TA'LIM MIGRATSIYASI VA INTEGRATSIYA KO'RSATKICHLARINI STATISTIK TAHLILI: YEVIROPA ITTIFOQI (SIRIUS) TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI

Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: agulhayot@gmail.com

ORCID: [0009-0000-5903-0579](https://orcid.org/0009-0000-5903-0579)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yevropa Ittifoqida migrant bolalar ta'limini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2012-yilda tashkil qilingan SIRIUS tarmog'i haqida so'z boradi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida migrant o'quvchilarning ta'lim tizimiga integratsiya darajasi, davlat xarajatlari, ta'limdan chetda qolgan o'quvchilar ulushi va ishtirok ko'rsatkichlari haqidagi to'plangan ma'lumotlar asosida Yevropa davlatlarining ta'lim tizimlari migrant o'quvchilarni qanchalik qo'llab-quvvatlayotganini baholovchi kompleks ko'rsatkichlar tizimidan iborat platforma haqida ma'lumot beriladi. O'zbekiston sharoitidagi ta'lim migratsiyasi muammolari taxlil qilinadi. Yevropa tajribasi asosida O'zbekistondagi ta'lim migratsiyasiga oid muammolarga amaliy yechim va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: migratsiya jarayonlari, ta'lim migratsiyasi, investitsiya, ijtimoiy kapital, migrantlar ta'lim siyosati indeksi.

Abstract. This article discusses the SIRIUS network, established in 2012, which aims to support the education of migrant children in the European Union. Based on compiled data on the level of migrant students' integration into education systems, public expenditures, the share of out-of-school learners, and participation indicators, the paper presents a platform that offers a system of comprehensive indicators for assessing how effectively European education systems support migrant students. The article also analyses the challenges of education-related migration in the context of Uzbekistan. Drawing on European experience, it proposes practical solutions and policy recommendations to address problems related to education migration in Uzbekistan.

Key words: migration processes; education migration; investment; social capital; migrant education policy index.

Аннотация. В статье рассматривается сеть SIRIUS, созданная в 2012 году с целью поддержки образования детей-мигрантов в Европейском союзе. На основе собранных данных об уровне интеграции учащихся-мигрантов в системы образования, государственных расходах, доле учащихся, не охваченных обучением, а также показателях участия представлена платформа, включающая систему комплексных индикаторов для оценки того, насколько эффективно образовательные системы европейских стран поддерживают учащихся-мигрантов. Также анализируются проблемы образовательной миграции в условиях Узбекистана. На основе европейского опыта предлагаются практические решения и рекомендации по устранению проблем, связанных с образовательной миграцией в Узбекистане.

Ключевые слова: миграционные процессы; образовательная миграция; инвестиции; социальный капитал; индекс политики образования мигрантов.

KIRISH

Migratsiya jarayonlari tahlil qilinarkan, bu jarayonlar ichida mamlakatning iqtisodiy va siyosiy maydondagi pozitsiyasiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlardan yana biri ta'lim migratsiyasi ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ta'lim migratsiyasi, ya'ni xorijda o'qish, malaka oshirish yoki ta'lim olish maqsadida migratsiya — bu insonga yo'naltirilgan investitsiya bo'lib, u uzoq muddatda mehnat unumdorligini, texnologik yangilanishni va xalqaro iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi.

So'nggi yillarda xalqaro va ichki migratsiya oqimlari kuchayib, ta'lim tizimlarida integratsiya muammosini dolzarb masalaga aylantirdi. Migrant bolalar ta'limga qamrov, til to'siqlari, ijtimoiy moslashuv va baholash adolati kabi omillar ta'sirida teng imkoniyatlardan chetda qolish xavfiga duch keladi. Bu holat kelgusida inson kapitali sifatiga, bandlik imkoniyatlariga va ijtimoiy uyg'unlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida migrant o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha til dasturlari, psixologik xizmatlar va hamkorlik mexanizmlari joriy etilgan. Ushbu siyosatlarni tizimli baholash va taqqoslashda 2012-yilda tashkil etilgan SIRIUS tarmog'i muhim metodik platforma vazifasini bajaradi. Mazkur maqola Yevropa Ittifoqi siyosati va SIRIUS tajribasini tahlil



qilib, O'zbekiston sharoitida ta'lim migratsiyasi muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishni maqsad qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Buyuk Britaniyalik olimlar Russell King va Parvati Raghuram fikriga ko'ra: "Ta'lim migratsiyasi (xalqaro talaba mobilligi) ko'p qatlamli jarayon bo'lib, unda ta'lim sifati bilan birga davlatlarning iqtisodiy va institutsional manfaatlarini ham muhim rol o'ynaydi" [1].

King va Raghuram 2013-yilda xalqaro talaba migratsiyasini global miqyosda kengayib borayotgan soha sifatida tasvirlab, uning iqtisodiy-siyosiy oqibatlari alohida tadqiqot yo'nalishini talab qilishini ta'kidlaydi.

Britaniyalik yana bir guruh olimlar (Findlay va boshqalar) esa ta'lim migratsiyasi ko'pincha inson kapitalini oshirish va kelajakdagi mehnat bozori pozitsiyasini kuchaytirishga qaratilgan investitsion qaror sifatida qaralishini, xalqaro ta'limga intilish, reputatsiya va kapital jamg'arish mexanizmlari talaba mobilligini kuchaytirishini izohlab beradi [2].

Yaponiyaning Sukuba universiteti olimlari Timur Dadabaev va Jasur Soipov qayd etishicha, O'zbekiston misolida ta'lim migratsiyasi ko'pincha mehnat migratsiyasi bilan tutashib ketadi. Xorijda ta'lim olish rejalari bandlik va daromadga oid motivlar bilan mustahkamlanadi. Ta'limiy mobillik yo'nalishlari tanlovida iqtisodiy omillar (ish topish ehtimoli, daromad, bozor talabi) sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [3].

Kanadaning Toronto universiteti faxriy professori Jim Cummins migrant bolalar ta'limida natija faqat metodikaga emas, balki maktab va jamiyatdagi siyosiy munosabatlar sinfdagi muloqotga ham ta'sir qilishini ta'kidlaydi [4].

Cummins tadqiqotlarida keltirilishicha, samarali ta'lim amaliyoti sinfda ham, kengroq ijtimoiy maydonda ham "majburlovchi" munosabatlarni yumshatib, hamkorlikka asoslangan muhitni yaratishga xizmat qiladi. Inklyuziv yondashuv bo'yicha siyosiy qarorlar (standartlar, imtihonlar, qo'llab-quvvatlash muddati) migrant o'quvchi uchun adolatli trayektoriyani belgilaydi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida migrant bolalar ta'limini qo'llab-quvvatlash yondashuvlarini va SIRIUS tarmog'i doirasida shakllangan indikatorli baholash amaliyotini tahlil qilish hamda ushbu tajriba asosida O'zbekiston sharoitida ta'lim migratsiyasi bilan bog'liq muammolar bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotda aralash metodlarga tayangan holda qiyosiy tahlil, indikatorli baholash va siyosiy kontent tahlili olib borildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yevropada migrant bolalar ta'limini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2012-yilda tashkil qilingan SIRIUS tarmog'i tomonidan yig'ilgan ma'lumotlar Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida migrant o'quvchilarning ta'lim tizimiga integratsiya darajasi, davlat xarajatlari, ta'limdan chetda qolgan o'quvchilar ulushi va ishtirok ko'rsatkichlarini ochib beradi. SIRIUS tarmog'i (Policy Network on Migrant Education) 17 ta mamlakatni qamrab olgan bo'lib, bu tarmoq ichida 31 ta hamkor tashkilot mavjud [5].

SIRIUS tarmog'i tomonidan "Migrantlar ta'lim siyosati indeksi" (Migrant Education Policy Index – MEPI) dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, bu dastur Yevropa davlatlarining ta'lim tizimlari migrant o'quvchilarni qanchalik qo'llab-quvvatlayotganini baholovchi kompleks ko'rsatkichlar tizimidan iborat.

Indeksning asosiy maqsadi — Yevropadagi turli mamlakatlarning ta'lim siyosatlarini migrantlar uchun inklyuziv, adolatli va sifatli qilish yo'lida tizimli tahlil qilishdir. Tahlil natijasida mamlakatlarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, siyosiy qaror qabul qiluvchilarga aniq tavsiyalar beriladi. Bu indeks 7 ta asosiy yo'nalish bo'yicha baholaydi:

1. Milliy strategiya va siyosatlar — migrantlar ta'limini davlat miqyosida qo'llab-quvvatlash darajasi.
2. Qabul va ta'limga yo'naltirish siyosati — yangi kelgan bolalarning maktabga joylashtirilishi va sinfga moslashtirilishi.
3. Teng va kompleks ta'lim tizimi — ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan cheklangan qatamlar uchun teng imkoniyatlar mavjudligi.
4. Ta'limga to'liq kirish va o'qish davomida yordam — til o'rganish, psixologik yordam, moliyaviy yordam kabi qo'llab-quvvatlash choralarining mavjudligi.
5. Yangi kelgan migrant o'quvchilarni baholash tizimi — ularning bilim darajasini aniqlash va moslashtirish mexanizmlari.
6. Til va ko'p tillilik siyosati — o'qitishda ona tili va davlat tilini uyg'un qo'llash.



7. O'qituvchilarni tayyorlash va malaka oshirish — migrant bolalar bilan ishlashga ixtisoslashgan pedagoglar tayyorlash darajasi.

Har bir yo'nalish uchun maxsus indikatorlar (jami 27 ta) ishlab chiqilgan bo'lib, bu indikatorlar bo'yicha mamlakatlarga ballar beriladi, so'ng ular umumlashtirilib integral indeks hosil qilinadi.

Indeksning ishonchligi va aniqligini ta'minlash uchun standartlashtirilgan so'rovnoma qo'llaniladi. So'rovnoma turli indikatorlardan iborat bo'lib, ularning har biri ta'lim siyosatining muayyan yo'nalishini ifodalaydi. Har bir indikator migrant o'quvchilarga qaratilgan siyosatning aniq jihatini o'lchovchi savol sifatida shakllantirilgan.

Baholashda 0 dan 100 gacha bo'lgan ball tizimi qo'llaniladi:

– 100 ball — ushbu sohada siyosat to'liq talabga javob berishini (yuksak darajada amalga oshirilganini);


– 0 ball — ushbu sohadagi siyosat butunlay yo'q yoki talabga javob bermasligini bildiradi.

Har bir davlat uchun yakuniy natija oddiy o'rtacha qiymat asosida hisoblanadi. Ya'ni, har bir asosiy va qo'shimcha indikator ballarining o'rtachasi olinib, umumiy indeks shakllantiriladi.

Migratsiya ta'limi bo'yicha baholangan ko'rsatkichlar (1,2-rasmlar) [6]:



1-rasm. Baholangan yo'nalishlar bo'yicha o'rtacha ballar



2-rasm. Davlatlar bo'yicha umumiy ballar (yetti yo'nalish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar)



Baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, indikatorlar bo'yicha o'rtacha ball eng pastida 34, eng yuqorisida esa 70 bo'lgan. Bu esa o'rganilgan ta'lim tizimlari o'rtasida rivojlanish darajasida sezilarli tafovut mavjudligini anglatadi. Davlatlar bo'yicha umumiy ballarga ko'ra, eng kompleks va rivojlangan yondashuvlar Ispaniyada (Kataloniya mintaqasi) va Portugaliyada kuzatilgan, ulardan keyingi o'rinlarda Fransiya va Irlandiya joylashgan [6].

SIRIUS ma'lumotlariga ko'ra, ko'plab Yevropa mamlakatlari (Fransiya, Portugaliya, Finlyandiya, Germaniya) migrant o'quvchilarning ta'limiga alohida budjet xarajatlarini ajratgan. Bu iqtisodiy jihatdan ijtimoiy kapitalga sarmoyadir, chunki ta'limga ega migrantlar kelajakda soliq to'lovchi, innovatsiya yaratuvchi va ish o'rinlari keltiruvchi iqtisodiy agentlarga aylanadi. Bundan tashqari, migrantlar ta'limiga sarflangan har bir mablag' uzoq muddatda 3–5 baravargacha ijtimoiy-iqtisodiy qaytim beradi [7].

Ta'lim tizimida migrantlar uchun maxsus dasturlar (til kurslari, integratsiya mashg'ulotlari, qo'shimcha o'qituvchilar) davlat xarajatlarini oshiradi, biroq bu qisqa muddatli xarajat — uzoq muddatli foyda modelidir. Chunki til to'siqlari kamayganda, o'quvchilar tezroq mehnat bozoriga kiradi. Ta'limda, bandlikda yoki o'qituv dasturlarida ishtirok etmayotgan migrant yoshlar ulushi pasayganda, davlat bandlik nafaqalari va ijtimoiy to'lovlarni tejaydi.

SIRIUS tarmog'ining tizimli yondashuvi shuni ko'rsatadiki, migrantlar ta'limi bo'yicha aniq, tizimli ma'lumotlar mavjudligi iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydigan eng muhim shartdir. Ma'lumot yig'ish tizimi, maqsadli budjet siyosati va ta'lim natijalarini monitoring qilish nafaqat ijtimoiy integratsiyani, balki iqtisodiy o'sishni ham tezlashtiradi [8]. Ta'lim migratsiyasi — bu kelajak iqtisodiy salohiyatiga sarmoyadir.

Ushbu tarmoq migrant o'quvchilarning barcha ta'lim bosqichlaridagi aniq ehtiyojlariga moslashtirilgan, migrantlar ta'limiga oid kompleks milliy strategiyalarni ishlab chiqish va joriy etish zaruratini keskin ta'kidlaydi. Bunday strategiyalar xalqaro maqsadlar (masalan, xavfsiz, tartibli va muntazam migratsiya bo'yicha Global kelishuv) bilan uyg'un bo'lishi, tarmoqlararo hamkorlikni rivojlantirishi, til va madaniy o'ziga xoslikni qo'llab-quvvatlashi hamda migrant hamjamiyatlarini jalb etishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

SIRIUS tarmog'i tajribasi shuni ko'rsatadiki, migrant o'quvchilarga yo'naltirilgan siyosat va budjet mexanizmlari faqat ijtimoiy integratsiyani emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omilni ham ifodalaydi.

O'zbekiston sharoitida bu modelni ichki va tashqi ta'lim migratsiyasi (ya'ni xorijda o'qiyotgan talabalar hamda viloyatlardan poytaxtga o'qishga ko'chayotgan yoshlar) uchun qo'llash nihoyatda dolzarbdir.

O'zbekistonda ta'lim migratsiyasi 2024-yil holatiga ko'ra, xorijda o'qiyotgan o'zbekistonlik talabalar soni 100 mingdan ortiq bo'lib, eng ko'p yo'nalishlar — Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Polsha va Chexiya davlatlari hisoblanadi [9]. O'zbekiston so'nggi yillarda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga katta mablag' ajratgan bo'lsa-da, xorijda tahsil olayotgan ko'plab yoshlar mamlakat iqtisodiyotiga qaytmayapti. Bu esa inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyaning samara bermayotganini anglatadi.

Ichki ta'lim migratsiyasi oqimi ham kuchli bo'lib, har yili 200 mingdan ortiq talaba viloyatlardan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona kabi markazlarga o'qishga ko'chadi. Biroq bu migratsiya oqimi iqtisodiy nuqtayi nazardan mintaqalararo tengsizlikni chuqurlashtiradi, chunki bilim resurslari va mehnat salohiyati asosan poytaxt atrofida to'planadi.

SIRIUS tarmog'ining mamlakatlararo tahlilida ta'lim ma'lumotlarini muntazam yig'ish eng muhim omil sifatida ko'rsatilgan. O'zbekistonda esa migratsion maqsadda o'qiyotgan talabalar bo'yicha yagona milliy reyestr mavjud emas, ya'ni ta'limdagi migrantlar ulushi, ta'limni tark etish darajasi, ta'limda ham, ish jarayonida ham bo'lmaganlar, ta'lim xarajatlarining ulushi va qaytimi kabi yo'nalishlarda tizimli ma'lumotlar yetarli emas. Ta'limga ajratilgan mablag'lar hududiy va ijtimoiy guruhlar kesimida tahlil qilinmaydi. Xorijga davlat granti asosida o'qish uchun ketganlar ma'lumotlarini tahlil qilib, "migrant ta'limiga ajratilgan mablag'lar — iqtisodiy foyda" koeffitsiyentini ishlab chiqish zarur. Bunda talabalar o'qishdan qaytib kelgach yaratayotgan soliq bazasi va bandlik darajasi asosiy o'lchov bo'lishi lozim.

Har 3–5 yilda bir marta xorijda o'qigan bitiruvchilarning mehnat faoliyati, ish haqi va tadbirkorlik faolligi bo'yicha ma'lumotlar yig'ish orqali davlatda siyosiy qarorlarni empirik asoslash imkoniyati paydo bo'ladi.

Mintaqalararo ta'lim investitsiyalarini muvozanatlash, ya'ni poytaxt va viloyatlar o'rtasidagi ta'lim sifati farqini kamaytirish maqsadida hududiy davlat grantlari tizimini joriy etish hamda viloyatlarda sifatli oliy ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish natijasida ichki ta'lim migratsiyasining iqtisodiy bosimi kamaytiriladi.

O'zbekiston uchun ta'lim migratsiyasini rivojlantirish iqtisodiy modernizatsiya strategiyasining tarkibiy qismidir. Agar mamlakat SIRIUS indeksiga o'xshash tizimli indikatorlarni joriy etsa, ta'limga yo'naltirilgan har bir investitsiya qisqa muddatda ijtimoiy integratsiyani, o'rta muddatda mehnat unumdorligini, uzoq muddatda esa barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.



Bundan tashqari, ta'lim migratsiyasi ko'rsatkichlari tizimi xalqaro reytinglar va hamkorlik dasturlarida mamlakat nufuzini oshirishga, diplomlarni tan olish jarayonlarini soddalashtirishga hamda oliy ta'lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi. Mazkur tizim yordamida hududlararo ta'lim oqimlari, yoshlar siyosati va malakali kadrlar taqsimotidagi tafovutlar aniqlanib, ta'limdagi hududiy muvozanatni saqlash imkoniyati yaratiladi. O'zbekiston sharoitida bunday tizim "El-yurt umidi", "Yosh olimlar", "Yoshlar akademiyasi" kabi dasturlarning samaradorligini baholash, xorijda tahsil olgan mutaxassislarning qaytishi va iqtisodiyotga integratsiyasini monitoring qilishda muhim vosita hisoblanadi. Umuman olganda, ta'lim migratsiyasi ko'rsatkichlari tizimi inson kapitali siyosatini shakllantirish, ilmiy kadrlar oqimini tartibga solish va ta'lim sohasida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda strategik ahamiyatga ega ilmiy-amaliy instrument sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Russell King, Parvati Raghuram. "Special Issue: International Student Migration". *Population, Space and Place: Volume 19, Issue 2. March/April 2013. Pages: 127-222.*
2. Allan M Findlay, Russell King, Fiona M Smith, Alistair Geddes and Ronald Skeldon. "World class? An investigation of globalisation, difference and international student mobility". *New Series, Vol. 37, No. 1 (2012)*, pp. 118-131 (14 pages). <https://www.jstor.org/stable/41427932>
3. Timur Dadabaev, Jasur Soipov. "Craving Jobs? Revisiting Labor and Educational Migration from Uzbekistan to Japan and South Korea". *ACTA VIA SERICA Vol. 5, No. 2, December 2020: 111-140.*
4. Cummins, J. (2000). *Language, power and pedagogy: Bilingual children in the crossfire (Bilingual Education & Bilingualism, 23)*. Clevedon, England; Buffalo, NY: Multilingual Matters.
5. SIRIUS-Policy Network on Migrant Education www.siriusmigrationeducation.org.
6. SIRIUS Migrant Education Policy Index A Comparative Assessment of Inclusive Policies for Migrant Learners in Europe. SIRIUS - Policy Network on Migrant Education www.sirius-migrationeducation.org. May 2025.
7. Deborah Nusche. What Works in Migrant Education? A Review of Evidence and Policy Options. OECD Education Working Papers No. 22. 5-february 2009.
8. Sinem Yilmaz. SIRIUS WATCH 2024. Towards Better Data for Migrant Education: A Mapping of Data Availability in 14 EU Member States, Migration Policy Group. May 2024.
9. Data for the Sustainable Development Goals. The UNESCO Institute for Statistics (UIS) is the official and trusted source of internationally-comparable data on education, science, culture and communication. 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>